

XOTIB BAG'DODIY VA "MUNTAHOB" RIVOYATLARI:TAHQIQIY TAHLIL

Ulug'murotov Akmal Ziyodullayevich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Xotibul Bag'dodiy "Az-zuhd var-raqoiq" kitobini yozgan bo'lib, ushbu manba bizgacha yetib kelmagan. Bizgacha Xotib Bag'dodiyning kitobidan tanlab olingan "Muntohob" asari esa bizgacha yetib kelgan⁴ Muntahobda "faqat Abdulloh ibn Umardan kelgan hadislar jamlangan. Bu kitobni tahrij qilgan va hadislarni tahqiq qilgan olim doktor Amir Sobriydir.

Kalitso'zlar: "Az-zuhd var-raqoiq", "Muntohob", "Muntohob", Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Aliy at-Toxir ad-Daqqoq.

Abdulloh ibn Muborak⁵ asarni rivoyat qilishda o'ziga xos yo'l tutib, o'zining qarashini isbotlash uchun dalillar keltirib, kitobni qo'shimcha ilmiy ma'lumotlar bilan boyitgan. "Zuhd"da o'ziga xos istilohlardan foydalangan. Asarni sharhlagan olimlar⁶ istilohlarning ma'nosiga alohida to'xtalib, ularni izohlab bergenlar. Bu faslda Zuhd kitoblarida keltirilgan hadislarning darajalari va jamlanish uslublarini sanab o'tamiz⁷.

Xotibul Bag'dodiy "Az-zuhd var-raqoiq" kitobini yozgan bo'lib, ushbu manba bizgacha yetib kelmagan. Bizgacha Xotib Bag'dodiyning kitobidan tanlab olingan "Muntohob" asari esa bizgacha yetib kelgan⁸. Muntahobda "faqat Abdulloh ibn Umardan kelgan hadislar jamlangan. Bu kitobni tahrij qilgan va hadislarni tahqiq qilgan olim doktor Amir Sobriydir. Bu kitobni ichidan "Muntohobni kim hadislarni tanlab olib yozganligi ma'lum emas lekin kitob hijriy ettinchi asirlarda muhaddislardan birlari yozgan⁹". Muntahob'dagi hadislarning roviysi Imom Majiddin Taboriyga sanadi tutashadi. Majiddin Taboriy o'zining ustozи ibn Masdiyga hadislarni o'qib bergen. Ibn Masdiyning yuqori sanadi Ibn Bag'dodiyacha yetadi. Imom xatib Bag'dodiy o'zining kitobida Payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallamni zuhdi haqida rivoyatlarni va sahobiy va tobeinlarni zuhdi haqida rivoyatlarni keltirgan, ammo "Muntohob"da esa, tobein va tabaa tobeinlarni zuhdi haqida juda ko'p misollar keltirilgan. Undan tashqari bu yerda Molik ibni Dinorni zuhdi haqida, qisqacha bir rivoyat keltirgan¹⁰. Juda ko'p zuhd bilan tasavvuf bilan mashhur

⁴ Abdurraqmon Abduljabbor Al-Faryoviyy. "Kitabuz-zuhd". Madina: "Maktabatud-dor", 1984.-88b

⁵ Mukhammedov, N. (2021). Activities Of Hadith Scholars Of Shosh (Tashkent) In Marv And Region Scientific Centers. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(6). <https://openurl.ebsco.com/EPDB>.

⁶ Mukhammedov Nematullo (2020) "ACTIVITIES OF HADITH SCHOLARS (MUHADDIS) OF SHASH OASIS IN SCIENTIFIC CENTERS OF THE REGION". The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 11. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss2/11>. -P. 75-81.

⁷ Doktor Muhammad Jalol Sharif. "Kitabuz-zuhd". Bayrut: "Kulliyatul-adab", 1981.-124 b

⁸ Abdurraqmon Abduljabbor Al-Faryoviyy. "Kitabuz-zuhd". Madina: "Maktabatud-dor", 1984.-88b

⁹ Abdurraqmon Abduljabbor Al-Faryoviyy. "Kitabuz-zuhd". Quvayt: "Dorul xulafo" 1985.-35 b

¹⁰ Abu Sof Huvayni al-Asariy. "Kitabuz-zuhd". Misirda: "Maktabat-toiy al-islamiya". 1993. — B.176



bo‘lgan olimlar haqida ya’ni ularni hayoti zuhdi haqida rivoyatlar keltirgan. Ularni aytgan gaplari qilgan ishlari va oxiratga targ‘ib qilishlik to‘g‘risidagi so‘zlarini dunyoga mukkasidan ketmaslik haqida dunyoni mazammatlashlik to‘g‘risida va bu dunyo Allohni nazdida bir pashshaning bir qanotichalik qadri yo‘qligi to‘g‘risida zikir qilgan. Ma‘lum bo‘lishicha, bu “Muntahab” nusxasida Abu Bakr Xatib rivoyatlarni sharx qilmasdan izoh bermasdan, to‘g‘ridan to‘g‘ri keltirib o‘tib ketavergan, o‘zi o‘sha zamon muhaddis olimlarini odati bo‘yicha shunaqa yozilgan¹¹.

Yana muallif rivoyatlarni saralamagan, ya’ni sahib, zaifga, zuhdga aloqasi bor bo‘lganlarining hammasini zikr qilib keltirgan. Xotib Bag‘dodiy o‘zining kitobida Payg‘ambarimiz salollohu alayhi vasallamning hadis to‘g‘risidagi hadislarni,sahobalar va tobiinlarnig zuhd haqidagi rivoyatlarini keltirgan.¹² Bu haqda Imom Javziy o‘zining “sifatussoffa” degan kitobidagi zuhdga oid hadislarni Xotib Bag‘dodiydan keltirganini aytib o‘tgan. Xotib Bog‘dodiy o‘zining zuhd kitobida rivoyat qilgan shayxlarini nomlarini va nechta rivoyat keltirganini qayd qilib o‘tgan¹³.

Shayxlardan birinchisi Muhammad ibn Jafar Haroiqiy “Ittilalul- qulub” kitobidan Xotib Bag‘dodiy ikita roviyidan iqtibos qilgan. Birinchisi Muhammad ibn Bishrondan keltirilgan. Ibn Bishron esa Ahmad ibn Ibrohim al-Tandiyidan rivoyatni keltirib o‘tgan¹⁴. Ikkinchisi Husayin ibn Ismoil Abuabdulloh ibn al-Muhaymiliy Bog‘dodning shayxlaridan muhaddis olim bo‘lgan ko‘plab kitoblar muallifi bosmadan chiqqan kitobi “Muhamiliyat’bu zotdan Imom Bog‘dodiy bitta hadis rivoyat qilgan¹⁵. Uchunchi shayx Mintoriq Abu Hasan Ahmad ibn Muhammad ibn Sovt al-Ahvaziy bu zot Muhaymiliydan hadis rivoyat qilgan. To‘rtinchi shayx Muhammad ibn Maxlad al-Attor ad-Duriy imom xofiz siqa va juda kub kitoblar tasnif qilgan.

Imom Xotib bu zotdan bitta hadis rivoyat qilgan buni Abul Hasan Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Sovt al-Ahvaziydan rivoyat qilgan. Beshinchi shayxi Aliy Ibn Is’hoq al-Modoroiy siqa muhaddis juda ko‘p kitoblar muallifi hisoblanadi¹⁶. Bu zot Ali ibn Qosimdan hadis rivoyat qilgan Xotib Bag‘dodiy ham bu zotdan ayni mana shu hadisni rivoyat qilib keltirgan.

Oltinchi shayx Muhammad ibn Abdulloh Asbahoniy zuhud to‘g‘risida juda ko‘p kitoblar yozgan. Imom Asbohoniy Ibn Shozondan rivoyat qilgan. Imom Asbahoniydan Imom Bag‘dodiy beshta hadis rivoyat qilgan. Yettinchi shayx Ismoil ibn Muhammad ibn Aliy as-Saffar an-Nahviy Iroqdagi eng e’tiborli olim bo‘lgan. Hadisdagi eng oliv sanad shu

¹¹ Abu Tamim Yasir ibn Ibrohim ibn Muhammad “ Kitabuz-zuhd”Qohira:”Darul mishkod”.1993.-B 231

¹² Doktor Amir Hasan as-Sobriy.“Kitabuz-zhd”. Bayrut: “Darul bashar islamiya”.1999. —B.123

¹³ Majdiy Fathiyy as-Sayyid “Zuhd”.Tonto:”Maktabatus-Sahoba”1988.-B.4

¹⁴Abu Tamim Yasir ibn Ibrohim ibn Muhammad “ Kitabuz-zuhd” -Qohira: “Darul mishkod”.1993. —B. 232

¹⁵Doktor Muhammad Jalol Sharify “Kitabuz-zuhd”. -Bayrut: “Kulliyatul-adab”, 1981.-128 b

¹⁶ Majdiy Fathiyy as-Sayyid “Zuhd”.Tonto:”Maktabatus-Sahoba”1988. — B.8



zotda bo‘lgan. Bu zot Muhammad ibn Ahmad ibn Rizq va Ali Ibn Bishronlar rivoyat qilgan Xotib Bog‘dodiy bulardan bitta hadis rivoyat qilgan¹⁷.

Sakkizinch shayx Muhammad ibn Yoqub ibn Asomdan Muhammad ibn Musa an-Noysaburiydan Imom Bog‘dodiy bitta rivoyat keltirgan. To‘qqizinch shayx Ahmad ibn Salmon an-Najjot ko‘p kitoblar tasnif qilgan. Bu zot Abdurrahmon ibn Ubayd al-Xarbiyidan hadis rivoyat qilgan. Imom Bog‘dodiy Ahmad ibn Salmondan bitta hadis keltirib o‘tgan¹⁸. O‘ninchi shayx Al-Jafar ibn Muhammad ibn Usayr al-Xuldiy Bog‘dod sufiylarning shayxi bo‘lgan va kuplab kitoblar yosgan. Imom Xotib bu zotdan etita roviydan o‘n beshta hadis iqtibos qilgan¹⁹. Roviylar Abul Hasan ibn Muhammad Ibn Ahmad ibn Rizqdan va Abul Hasan Aliy ibn Ahmad ibn Umar al-Muqriy, Muhammad ibn Farojal ibn Bazzoz, Muhammad ibn Muhammad ibn Maxlad, Abdullox ibn Ahmad ibn Asbahoniy, Ahmad ibn Husayn al-Vo‘iz, Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Aliy at-Toxir ad-Daqqoq bu roviylarning barchasini Xauldiydan rivoyat qilgan²⁰.

O‘n birinchi shayx Dalaj ibn Ahmad ibn Abu Muhammad as-Sijistoniy imom Xotib bu zottaning kitoblaridan bitta hadis iqtibos qilganlar roviysi Ibn Musa Abdulmalik Bishron bo‘lgan. O‘n ikkinchi shayxi Abdulboqiy ibn Qoni‘i Abul Husayn al-Bag‘dodiy “Mu’jamus-sahoba” degan kitob bitgan. Xotib Bag‘dodiy bu asardan bitta hadis keltirgan rovisu esa Husayin ibn Umar ibn Boburxonni rivoyati.²¹

O‘n uchinchi shayx Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim Abubakir ash-Sofi‘iy imom shayxul islom va ko‘plab kitoblar tasnif qilgan zot. Imom Bog‘dodiy Ali ibn Ahmad ibn Muhammad ar-Razzozning bitta rivoyatini keltirib o‘tgan.

O‘n to‘rtinchi shayx Muhammad ibn Husayn al-Ojur’ muhaddis siqa juda ko‘p kitoblar tasnif qilgan. Imom Xotib bu zotning “G‘uroba” asaridan Ibn Bishron va Aliy ibn Hafzni rivoyatlaridan uchta hadis keltirib o‘tgan²².

O‘n beshinchi shayx Ahmad ibn Jafar Abubakir al-Qoti‘iy Abdullo ibn Ahmadni Musnadini rivoyat qilgan siqa va olim zot bo‘lgan. Imom Bog‘dodiy bu zotning kitoblaridan Salama ibn Umar rivoyati bilan to‘rtta hadis rivoyat qilgan.

O‘n oltinchi shayx Muhammad Ibn Abdulloh ibn Shozan al-Muzakkir so‘fiy va so‘fiylarning iboralarini yaxshi tafakkur qilgan zot bo‘lib, ko‘plab so‘fiylarni iboralarini jam qilib kitob bitgan²³. Imom Xotib “Muntaxobda” bu zotdan to‘qqizta rivoyat keltirgan va hammasi Abu Ali Abdurrahmon ibn Muhammad ibn Fadola an-Naysaburiydan rivoyat

¹⁷Shayx Omir Axmad Haydar “ Kitabul zuhdul kabir”, -Bayrut “ Darul linon”1987. — B.67

¹⁸ Abu Sof Huvayni al-Asariy. “Kitabuz-zuhd”. -Misr:”Maktabat-toiy al-islamiya”.1993. — B.176

¹⁹ Abdurraxon Abduljabbor Al-Faryoviy.“Kitabuz-zuhd”.Madina:”Maktabatud-dor”, 1984.-87 b

²⁰ Munzir Salim Mahmudad-Dumiyy .“Kitabuz-zuhd”.Riyod:”Dorul atlas”.2000. —B.201

²¹ Majdiy Fathiyy as-Sayyid “Zuhd”.Tonto:”Maktabatus-Sahoba”1988. — B.4

²² Munzir Salim Mahmudad-Dumiyy .“Kitabuz-zuhd”.Riyod:”Dorul atlas”.2000. — B.204

²³ Abu Sof Huvayni al-Asariy. “Kitabuz-zuhd”.Misirda:”Maktabat-toiy al-islamiya”.1993. — B.176.

qilingan. O'n yettinchi shayx Abdulloh ibn Aliy Abunasir Asarroj imom zohid "Al-luma" nomli tasavvuf ilmida mashhur bo'lgan kitob bitgan. Imom Xotib aynan shu kitobidan Abdurrahmon ibn Muhammad as-Sarroi rivoyatidan kelgan bitta hadisni o'z kitobida keltirgan.

O'n sakkizinchi shayx Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Yaqub al-Mufit hadis va zuhud tug'risida ko'plab kitoblar bitgan²⁴. Imom Xotib bu zotdan Ahmad ibn Husayn ibn Sammokni rivoyati bilan kelgan to'qqizta hadisni rivoyat qilgan.O'n tuqqizinchi shayx Muhammad ibn Ibrohim Abubakr ibn al-Muqri' al-Hofiz o'z zamonasini o'ta mashhur olimlaridan bo'lgan ko'plab kitoblar tasnif qilgan²⁵.

Imom Xotib bu zotdan Abu Abbos al-Fadil ibn Abdurrahmon al-Buxoriyni bitta hadislarini iqdibos qilib keltirgan. Imom Xotib Bag'dodiy "Muntaxob"da manashu shayxlarning kitoblaridan hadislarni roviylari bilan keltirib o'tgan.

○نَ أَبِي عَبْدِ الرَّحْمَنِ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ عُمَرَ بْنِ الْخَطَّابِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا، قَالَ: سَمِّعْتُ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقُولُ: "بَنْيَ الْإِسْلَامِ عَلَى خَمْسٍ: شَهَادَةُ أَنْ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ وَأَنَّ مُحَمَّدًا رَسُولُ اللَّهِ، وَإِقَامُ الصَّلَاةِ، وَإِيتَاءُ الزَّكَاةِ، وَحَجَّ الْبَيْتِ، وَصَوْمُ رَمَضَانَ".²⁶

Abu Abdurrahmon Abdulloh ibn Umar ibn Xattob raziyallohu anhumodan

rivoyat: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar: "Islom besh narsa ustiga barpo qilingandir: Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad sollallohu alayhi va sallam Allohning Rasuli, deb guvohlik berish; namozni barpo qilish; zakotni ado etish; Baytullohni haj qilish; Ramazon oyida ro'za tutish" dedilar.

○وَعَنْ عُثْمَانَ بْنِ عَفَانَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: "خَيْرُكُمْ مَنْ تَعْلَمَ الْقُرْآنَ وَعَلَمَهُ".²⁷

Usmon ibn Affon r.a

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Sizlarning eng yaxshilaringiz – Qur'oni o'r ganib, uni boshqalarga o'rgatganingizdir", deganlar. Shayxul islam Abu Mas'ud al-Mu'afiy ibn Imron al-Mavsiliyga tegishli bo'lgan "Zuhd kitobi" deb nomlagan.Imom Sifyon Savriyning shogirdlaridan bo'lgan. Bu kitobini oxirida muallof o'zining" Musnadi al-Muafiy" asarini ham qo'shib keltirgan²⁸.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Doktor Muhammad ibn Muhammad Abu Shahba. A'lomul muhaddisin. – Misr: Markazu kutubish sharqil avsat, 1962.

²⁴ Doktor Amir Hasan as-Sobriy."Kitabuz-zhd". - Beirut:"Darul bashar islamiya".1999. — B.129

²⁵Majdiy Fathiy as-Sayyid "Al-favoid vaz-zuhdi var-raqoq val-marosiy" Tonto: "Darul as-sahoba.1989. —B.345

²⁶Ahmad Farid . "Kitabuz-zuhd var-raqoq". - Riyod :"Darul me'roj ad-davliya". 1995.-80 b

²⁷Ahmad Farid . "Kitabuz-zuhd var-raqoq". - Riyod :"Darul me'roj ad-davliya". 1995.-80 b

²⁸Majdiy Fathiy as-Sayyid "Al-favoid vaz-zuhdi var-raqoq val-marosiy" Tonto: "Darul as-sahoba".1989. —B.345



- 
2. Murodov Doniyor. Hadis to‘plamlarini qiyosiy o‘rganish. Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2018.
 3. Mukhamedov, N. (2021). Activities Of Hadith Scholars Of Shosh (Tashkent) In Marv And Region Scientific Centers. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(6). <https://openurl.ebsco.com/EPDB>.
 4. Mukhamedov Nematullo (2020) "ACTIVITIES OF HADITH SCHOLARS (MUHADDIS) OF SHASH OASIS IN SCIENTIFIC CENTERS OF THE REGION". The Light of Islam: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 11. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss2/11>. -P. 75-81.
 5. Sam’oni. Al-ansob. J. 8.
 6. Hasanov A.A. Qadimgi Arabiston va ilk islom. I kitob. Johiliya asri. Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti. – 2001.

